



## JAMIYATDA INKLYUZIVLIK SHAROITIDA INKLYUZIV MADANIYATNI OSHIRISH ASOSLARI

*Urunova D.M.*

*Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchi*

**Tayanch soʻzlar:** inklyuziv madaniyat, jamiyat, taʼlim, ota-ona, usul, alohida ehtiyojlari mavjud bolalar, inklyuziv taʼlim.

**Ключевые слова:** инклюзивная культура, общество, образование, родители, метод, дети с особыми потребностями, инклюзивное образование.

**Key words:** inclusive culture, society, education, parents, method, children with special needs, inclusive education.

Kirish. Shiddat bilan borayotgan ayni zamonda inklyuziv madaniyatni yuksaltirish jamiyat uchun kerakli jarayondir, chunki inklyuziv madaniyat yuksaltirsagina alohida ehtiyojlari boʻlgan shaxslarni ijtimoiylashtirish va jamiyatga qoʻshishni osonlashtirishga yordam beradi. Shu bilan bir qatorda, oʻquvchilarni jamiyatga kira olish imkoniyatlari, ularning jamiyatda oʻz oʻrnini topgan holda jamiyat bilan munosabatda boʻlish imkoniyatlari sezilarli darajada kengayadi, har bir ehtiyojli shaxsni jamiyatga qoʻshish uchun zarur shart-sharoitlar shakllantiriladi.

Jamiyatining rivojlana borishi "inklyuziv madaniyat" tushunchasiga jiddiy eʼtibor qaratish lozimligini asosladi, bu esa jamiyatdagi barcha insonlarning rivojlanishini taʼminlaydigan, har bir insonning qadriyatlarini qadrlaydigan xavfsiz, bagʻrikeng insonlar jamoasi sifatida eʼtirof etiladi.

Madaniyat falsafiy tushuncha sifatida jamiyat rivojidadagi maʼlum bir tarixiy rivojlanish bosqichlarni oʻzida aks ettiradi, odamlar hayoti va faoliyatini olib borish shakllari, oʻzaro munosabatlari, shuningdek, ular tomonidan barpo etilgan moddiy va maʼnaviy qadriyatlardagi maqsadli yoʻnalishlarni belgilaydi va ochib beradi.

Bir tomondan qaraydigan boʻlsak, inklyuziv madaniyatni oʻziga xos falsafa sifatida olsak boʻladi, chunki, undagi oʻziga xos qadriyatlar, inklyuziv taʼlim haqidagi bilimlar va masʼuliyat qabul qilinadi va ushbu jarayonning barcha

ishtirokchilari o'rtasida taqsimlanadi. Inklyuziv madaniyatni shakllantirish deganda har bir bolaga do'stona, hech qanday to'siqlarsiz, teng munosabatda bo'linadigan muhit tushuniladi. Bunday jabhada inklyuziya mafkurasi ta'lim jarayoni ishtirokchilari tomonidan birdek qabul qilinadi. Inklyuziv madaniyatni yuksaltirishda ta'lim tizimining o'rni muhim. Chunki har bir inson ta'lim olishi, ta'lim olish huquqini amalga oshirish imkoniyatlarini huquqiy, tashkiliy, texnik, moliyaviy va ijtimoiy jihatdan kafolatlash huquqiga ega. Inklyuziv ta'lim, bu barcha bolalar uchun maxsus ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqliligini hisobga olgan holda ta'lim muassasalarida bilim olishda teng huquqlilikni ta'minlash bo'lib hisoblanadi.

Inklyuziv ta'limda alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan bolalar tengdoshlari bilan birga ma'lum bir maqsadda, ya'ni ta'lim olish uchun birlashtiriladi. Inklyuziv ta'lim bolaning qobiliyati va imkoniyatlariga ko'ra olib boriladi. Bunda faqatgina ta'lim berish emas, balki, imkoniyati cheklangan bolada o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish, bilim va qobiliyatini rivojlantirish, yoshligidan o'qishga va o'rganishga motivni uyg'otish ham lozim. Bu jarayonida ota-onalar, jamiyat bilan ishlash talab etiladi. Bunda, shuningdek, hamjamiyat ishtirokchilarining imkoniyati cheklangan shaxslar, shuningdek, rivojlanishida kamchiliklari bo'lgan bolalarni ta'limga olib kirishga bo'lgan munosabatlarini shakllantirishimiz lozim.

Adabiyot tahlili va metodologiyasi. Inklyuziv so'zi fransuzcha, inclusive – o'zini olib kirish, qo'shilish va qamrab olish ma'nolarini anglatib, uni har xil mazmunda qo'llash mumkin. Masalan, agar inklyuziv so'zini ta'limga nisbatan foydalanilsa, ma'lum ehtiyoji bor bolalar bilan sog'lom yoshlarning bir muhitda ya'ni hech qanday tafovutsiz va to'siqsiz muhitda ta'lim olish imkoniyatini yaratishdir. Agar inklyuziv so'zi jamiyatga nisbatan qo'llanilsa, jamiyatdagi barcha jamiyat a'zolari orasida barcha narsa va imkoniyatlardan foydalanish imkoniyatini tenglashtirish ma'nosida qo'llaniladi. Inklyuziv so'zini agar siyosatda qo'llasak tashqi siyosatni amalga oshirishda dunyodagi barcha davlatlarga bir xilda munosabatda bo'lish kabi ma'nolarni anglatadi.

o'tgan yillar davomida inklyuziv ta'limning maqsadi, ya'ni, uning asosini inklyuziv madaniyat tashkil etgan chinakkam insonparvar jamiyat sifatida inklyuziv jamiyatni barpo etish muammolari munozaralarga sabab bo'lib kelgan.

Jamiyatda alohida ta'lim olish ehtiyoji mavjud bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan ta'lim tashkilotida ta'lim olishda qatnashuvchi sub'ektlarning inklyuziv madaniyatini quyidagi elementlarga bo'lish mumkin:

1) inklyuziv ta'limga oid qarashlar, qadriyatlar, me'yorlar, munosabatlar va axloq qoidalari, bularning barchasi inklyuziv madaniyatni shakllantirishda juda muhim. Chunki, bularsiz jamiyatda inklyuziv madaniyatni rivojlantira olmaymiz. Chunki insonlar ma'lum bir qadriyat va me'yorlar asosida faoliyat olib boradi.



2) inklyuziyaga nisbatan qadriyatlar va munosabatlar, ya'ni, rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalarni sog'lom bolalardan ajratmagan holda oddiy maktablarda o'qitishga bo'lgan munosabatlarni shakllantirish, maktablarda ularning jamiyatdagi to'liq ishtirokini ta'minlash uchun qo'shimcha yordam ko'rsatish lozim.

3) inklyuziv ta'limning barcha qatnashchilari orasida o'zaro yaxshi munosabatlarga yordam beradigan ijtimoiy va shaxsiy fazilatlarini shakllantirish.

Ta'lim tashkilotida inklyuziv madaniyatni rivojlantirishda jamiyat a'zolari tomonidan ta'lim munosabatlaridagi xilma-xillikni hurmat qilish, ularga nisbatan bag'rikenglik, har bir kishining harakatlarini rag'batlantirish va madaniyatni shakllantirish qadriyatlarini qabul qilish, ular asosida yuqori saviyali inklyuziv jamiyatni qurish jarayoni sifatida qaraladi. Inklyuziv madaniyatni shunday yaratish kerakki, unda nuqsoni bor bo'lgan shaxs jamiyatning teng va to'laqonli a'zosi sifatida o'zini his qilsin.

Natijalar. Natijalar shuni ko'rsatdiki, inklyuziv ta'lim inklyuziv ta'limga ega guruhlari va sinflarida har xillikni anglashga va har bir inson turli kuchli va zaif tomonlarga ega ekanligini tushunishga yordam beradi. Nuqsonga ega bo'lgan bolalar, sog'lom bolalar qatori, ularning iqtidori va salohiyatini to'liq rivojlantirish uchun qo'llab quvvatlansa va qulay sharoit yaratilsa, bu toifadagi insonlar ham jamiyat rivojiga katta hissa qo'shishlari mumkin. Bunday bolalar jamiyatda o'zlarini yanada qulay va xavfsiz his etadilar. Ular, shuningdek, ijtimoiy mas'uliyatni his qiladigan va o'z jamiyatlarini yaxshilashga hissa qo'shadigan faol fuqarolar bo'lib yetishadilar.

Shuningdek, inklyuziv madaniyatni rivojlantirishda ta'lim jarayoni ishtirokchilarining inklyuziv madaniyat darajasiga nisbatan qarashlari, jamiyatdagi insonlarning fikrlari ham katta ta'sir ko'rsatadi, ular orasida salbiy fikrlar ham uchrashi mumkin. Masalan, ma'lum bir nuqsonga ega insonlar har doim atrofdagilari tomonidan "mehnat va kasbiy faoliyatga yaroqsiz shaxs" sifatida qaralgan. Mavjud ijtimoiy qarashlar bilan birga, befarqlik, nogiron kishining biron faoliyatga qiziqishi yo'qligi va bu odamlarni tushunishni istamasliklari ham uchraydi. Jamiyatning nogiron kishi haqidagi noto'g'ri qarashlari tushunmovchilikni keltirib chiqaradi va u bilan muloqot qilishda qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, ma'lum bir sog'lig'i bilan bog'liq muammolarga duch kelgan odam bilan aloqa qilganda, odamlar bu nogiron kishi qiziqarli suhbatdosh bo'lishi mumkinligiga amalda ishonch hosil qilishadi.

Inklyuziv madaniyatni rivojlantirishda jamiyat a'zolari, shuningdek, nuqsonli bolalar va ota-onalar o'rtasida o'rnatilgan o'zaro munosabatlar, yaratilgan to'siqsiz muhit ham muhim o'rin egallaydi. Yana shu jihatga ham diqqat qaratishimiz kerakki, inklyuziv ta'limning rivojlanishiga ta'lim sub'ektlarining madaniyati,



ularning o'zaro aloqadorlikdagi munosabatlarining darajasi ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayonda nuqsonli bola o'zining jamoa a'zosi ekanligi yuqori darajada tuyishi, o'zaro muloqot, o'zgalarga ochiqlik va hayrihohlik hissini shakllantirishi lozim. Dars jarayonida har bir o'quvchining o'z o'rniga egaligi, ularning har biri bilan individual ishlash, odob va hayrihohlik bilan so'zlashish madaniyatiga har jabhada rioya qilish lozim.

Muhokama. Inklyuziv ta'lim rivojlanishdagi ayrim nuqson darajalarini inobatga olgan tarzda nuqsoni mavjud bolalarni ta'lim tizimiga to'liq qamrab olishga imkon yaratadi. Ma'lum nuqsonga ega bo'lgan bolalarning ta'lim olish huquqini amalga oshirish imkoniyatlari tashkiliy, huquqiy, texnik, ijtimoiy va moliyaviy xarakterdagi barcha muammolar mavjudligi bilan bog'liq. o'tgan yillar davomida inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi, uning negizini inklyuziv madaniyat tashkil etgan haqiqiy insonparvar jamiyat sifatida inklyuziv jamiyatni yaratishga qaratilgan inklyuziyaning nazariy asoslarini amaliy tadbir etishning samarali yo'nalishini aniqlash muammolari ko'plab ilmiy va pedagogik muhokamalarga sabab bo'lib kelgan. Nuqsoni bo'lgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarga ta'lim-tarbiya berish, ularning jamiyatda o'ziga munosib o'rinni egallashlariga ko'maklashish masalasiga alohida e'tibor qaratish lozim. Mavzuga oid tadqiqot ishlarini o'rganish, ularni ilmiy jihatdan tahlil etish asosida ma'lum bo'ladiki, nuqsonli yoshlarning tarbiyaviy muhiti hamisha yaxshi, mo'tadil bo'lishi, hamisha alohida e'tiborda qaralishi muhimdir.

Inklyuziv ta'lim ma'lum bir ehtiyojga ega bo'lgan shaxs yoki moliyaviy qiyinchilikga qaramay, ijtimoiy hayotga kirishga qaratilgan ta'lim jarayoniga olib kirishni ta'minlovchi ta'lim tizimi bo'lib hisoblanadi.

Ma'lum bir nuqsoni mavjud bolalar bilan o'zaro munosabatlarga kirishish, ular bilan doimiy muloqot qilish alohida ahamiyatga ega masaladir. Bunda avvalo, nuqsonli shaxsning jamiyatga qo'shilishi va jamiyatning uni qabul qilishga tayyorligi juda muhim masaladir. Nuqsoni mavjud bo'lgan har bir shaxs o'zini qurshab turgan jamiyat tomonidan qabul qilingan, jamiyat uchun kerakli inson ekanligini his qilishi muhimdir. Inklyuziv o'zaro ta'sir qilish odamlar orasidagi muloqotning o'ziga xos turi bo'lib, u yerda muhim muammolar muhokama qilinib hal qilinadi.

Xulosa. Inklyuziv madaniyat inklyuziv jamiyatda nuqsonli shaxslarning o'z o'rnini topishida, jamiyatga kerakli shaxs bo'lib shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda shaxslarning qarashlarida xilma-xillik uchraydi. Jamiyat tomonidan abzal ko'riladigan, yuksaklarga ko'tariladigan, to'plangan, inklyuziv ta'lim maqsadlariga mos kerakli natijalarni ta'minlashga qaratilgandir.

Jahondagi alohida yordamga muhtoj bolalarning psixologik imkoniyatini hisobga olgan holda ruhiy tuzatish usullari, oilada va jamiyatda insonparvarlik



g‘oyasini shakllantirish, zarur yordamlashuvchi vositalar imkoniyatlarini oshirishda yuqori ilmiy, pedagogik izlanishlar ustida ko‘proq ishlash lozim. Nuqsonli bolalarni o‘qitishda inklyuziv ta‘limning turli tomonlari, nuqsonlari bo‘lgan bolalarning ta‘limiy ehtiyojlarini qondirish, ularning har tomonlama tengligini ta‘minlash, jamiyatning to‘laqonli a‘zosi deb tan olishga oid qarashlar bu o‘rganishlarning asosini tashkil etib, ular nuqsonga ega bolalarning o‘ziga xos jihatlari va kirishimlilik imkoniyatlarini hisobga olish, va buni ta‘minlash hamda qo‘llab-quvvatlash, ta‘lim-tarbiyani olib borishning pedagogik asosini ta‘minlash juda muhim masaladir.

#### Adabiyotlar:

1. 2020-2025 yillar Xalq ta‘limi tizimida inklyuziv ta‘limni rivojlantirish Konsepsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligi 2020 yil 13 iyul PQ-4860-son qarori.
2. Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim -tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13 oktyabrda PQ-4860-son qarori.
3. Qodirova F.U. Imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash va jamiyatga uyg‘unlashtirish muammolari va ularning samarali yechimlari.//”Spetsialnaya inklyuziya: novqe orientir q sotsializatsii detey”. Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi Markazi. Xalqaro konferentsiya materiallari to‘plami. Toshkent, 2017. –B89-91.
4. YUNESKO: Barchaga ta‘lim olishni ta‘minlash. –T.: O‘zbekiston, 2009. – 68-b.
5. Egamberdieva N.M. Ijtimoiy pedagogika. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 232 b. – B.71-72.
6. Salieva Z.T. Ijtimoiy pedagogika. – T.: “Adabiyot uchqunlari”, 2019. – 189 b. – B.89.
7. Alleman N. F., Holly L. N., Costello C. A. Leveraging a new building to overcome first and second-order barriers to faculty technology integration // Journal of Learning Spaces. 2013. Vol. 2, Iss. 1. Available from: <http://www.partnershipsjournal.org/index.php/jls/article/view/381> (date of access: 11.06.2020).
8. Hwang Y.-S., Evans D. Attitudes Towards Inclusion: Gaps between Belief and Practice // International Journal of Special Education. 2011. Vol. 26, Iss. 1. P. 136–146.
9. Urunova D.M. “Ta‘lim tizimida inklyuziv ta‘limning o‘rni” 2023
10. Urunova D.M. “nklyuziv ta‘limga o‘qituvchilarning psixologik-pedagogik tayyorgarligi muhim omil sifatida” 2023

#### РЕЗЮМЕ

Maqolada inklyuziv jamiyat va ushbu jamiyatda inklyuziv madaniyatni rivojlantirish yuzasidan ilmiy, nazariy tahlillar yoritilgan. Shuningdek, maqolada inklyuziv madaniyatni shakllantirishda ijtimoiy, pedagogik jarayonlar tahlil qilingan va o‘rganilgan.

#### РЕЗЮМЕ

В статье проводится научно-теоретический анализ инклюзивного общества и развития инклюзивной культуры в этом обществе. В статье также анализируются и исследуются социальные, педагогические процессы формирования инклюзивной культуры.

#### SUMMARY

The article covers scientific and theoretical analyzes of inclusive society and the development of inclusive culture in this society. The article also analyzes and studies social, pedagogical processes in the formation of inclusive culture.